



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

8 (70) 2024

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

8 (70)

2024

август

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com> E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

UDK 616.98: 618.19-006.

ОQ ZOTSIZ KALAMUSHLAR HAZM TRAKTINING SIRKA KISLOTASI TA'SIRIDA KUYISHIDAN KEYINGI O'PKA TO'QIMASIDAGI MORFOLOGIK VA MORFOMETRIK O'ZGARISHLAR

Ismoilov Zafar Zaripovich <https://orcid.org/0009-0002-6408-3143>

¹Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro, st. A. Navoiy. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

²O'zbekiston Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filiali, Buxoro viloyati, 200100, Buxoro, ko'ch. Bahouddin Naqshbandiy 159, tel: +998652252020 E-mail: bemergency@rambler.ru

✓ Rezyume

Hozirgi vaqtda hazm trakti turli darajadagi kimyoviy kuyishlari juda dolzarb tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammodir. Yuqori oshqozon-ichak traktining og'ir kuyishi katta yoshli bemorlarning 10-33% ga ta'sir qiladi, o'lim darajasi 10% gacha kuzatiladi. Hazm traktining kimyoviy kuyishlari hozirgi kunda ham ko'p uchraydigan kassallik hisoblanadi ayniqsa bolalar orasida ham yoki o'smir yoshida uchrash darajasi nisbatan yuqoriligi va buning oqibatida yuzaga keladigan asoratlar, buning natijasida yuzaga keladigan nogironliklarning oshishi kuzatilmoqda. Hazm traktining turli darajalarida kuyishlarida o'pka to'qimasida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarning xorijiy va mahaliy manbalarda yetarli emasligi bu mavzuning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: o'pka, morfologiya, morfometriya, hazm trakti, kuyish.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ТКАНИ ЛЕГКИХ ПОСЛЕ ОЖОГОВ УКСУСНОЙ КИСЛОТЫ У БЕЛЫХ КРЫС

Исмаилов Зафар Зарипович <https://orcid.org/0009-0002-6408-3143>

¹Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан, г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

²Бухарский филиал Республиканского научного центра экстренной медицинской помощи Узбекистан, Бухарская область, 200100, Бухара, ул. Бахоуддина Накшбанди 159, тел: +998652252020 E-mail: bemergency@rambler.ru

✓ Резюме

В настоящее время химические ожоги органов пищеварения различной степени тяжести представляют собой весьма актуальную медицинскую, социальную и экономическую проблему. Тяжелые ожоги верхних отделов желудочно-кишечного тракта поражают 10-33% взрослых пациентов, летальность достигает 10%. Химические ожоги пищеварительного тракта и в настоящее время являются распространенным заболеванием, особенно среди детей и подростков, частота встречаемости сравнительно высока, а возникающие при этом осложнения и инвалидность увеличиваются. Одним из актуальных направлений данной темы остается недостаточная информация о морфологических изменениях легочной ткани при ожогах разных уровней пищеварительного тракта в зарубежных и местных источниках.

Ключевые слова: легкие, морфология, морфометрия, пищеварительный тракт, ожог.

MORPHOLOGICAL AND MORPHOMETRIC CHANGES IN LUNG TISSUE AFTER ACETIC ACID BURNS OF ALBUM RATS

Ismailov Zafar Zaripovich <https://orcid.org/0009-0002-6408-3143>

¹Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi. 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

²Bukhara branch of the Republican Scientific Center for Emergency Medical Care Uzbekistan, Bukhara region, 200100, Bukhara, st. Bahouddin Nakshbandi 159, tel: +998652252020 E-mail: bemergency@rambler.ru

✓ *Resume*

Currently, chemical burns of the digestive organs of varying severity are a very pressing medical, social and economic problem. Severe burns of the upper gastrointestinal tract affect 10-33% of adult patients, the mortality rate reaches 10%. Chemical burns of the digestive tract are currently a common disease, especially among children and adolescents, the incidence rate is relatively high, and the complications and disability that arise are increasing. One of the pressing areas of this topic remains the lack of information on morphological changes in lung tissue in burns of different levels of the digestive tract in foreign and local sources.

Keywords: lungs, morphology, morphometry, digestive tract, burns.

Dolzarbligi

Hozirgi vaqtda ovqat hazm qilish tizimining turli darajadagi kimyoviy kuyishlari juda dolzarb tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammodir. Yuqori oshqozon-ichak traktining og'ir kuyishi kattalardagi bemorlarning 10-33% ga ta'sir qiladi, o'lim darajasi 10% ga yetadi. Morfologik jihatdan o'tkir o'pka shikastlanishining uch bosqichi mavjud. Ulardan birinchisi erta eksudativ bosqich (besh kungacha) [1,2,3,4]. Bu kapillyarlarning tiqilib qolishi, o'pka alveolarining puchayishi, mikrotromblar, alveolositlarning shikastlanishi, neytrofillar infiltratsiyasi, o'pka shishi, alveolalar ichida gialin parda va fibrin mavjudligi bilan tavsiflanadi [5]. Ikkinchi bosqich - fibrinoproliferativ (olti kundan o'n kungacha) [6]. O'pka shishi asta-sekin yo'qoladi va fibroblast proliferatsiyasi boshlanadi. O'tkir o'pka shikastlanishi boshlanganidan keyin o'ninchi kundan boshlab shakllanadigan uchinchi fibrotik bosqich destruksiya o'choqlarida biriktiruvchi to'qima (hujayralar va tolalar) paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi [7,8].

Tadqiqotning maqsadi: 6 oylik oq zotsiz kalamushlar hazm nayining sirka kislotasining past (6%) konsentratsiyasi ta'sirida kuyishidan keyin o'pka to'qimasidagi morfologik va morfometrik o'zgarishlarni o'rganish va tahlil qilish.

Material va usullari

Tadqiqotda 30 ta kalamushlardan foydalanildi, ular yoshi bo'yicha oylik hamda ularga mos ravishda nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Kalamushlar saqlanadigan xona ushbu turdagi laboratoriya hayvonlarni saqlash sharoitlariga qo'yiladigan talablarga mos bo'ldi (t 20-24 C°, namlik 60%, yorug'lik/qorong'ulik 12 soat/12 soat). Suv cheklovlarsiz berildi va hayvonlarni oziqlantirganda barcha jinsiy yetuk kalamushlar bir hafta davomida karantinda saqlandi, somatik yoki infeksiya kasalliklari istisno qilinganidan keyin oddiy vivariy rejimiga o'tkazildi. Tajribani boshlashdan avval hayvonlar ikki haftali karantindan o'tib, tajriba kamerasida bo'lishga o'rgatildi (BDTI da laboratoriya hayvonlarini nazorat qilish va foydalanishga etik qo'mita va komissiya talablari).

Kalamushlarning birinchi guruhi (intakt) nazorat guruhi bo'lib, tajribada natijalarni boshqa guruh bilan solishtirish uchun oddiy standart ratsion asosida boqilgan oq zotsiz kalamushlar. Tajribamizning ikkinchi guruhida esa sirka kislotasining past (6%) konsentratsiyasi ta'sirida eksperimental hazm trakti kuyishi keltirib chiqarilgan oq zotsiz kalamushlar. (1-jadval).

Hayvonlar och qoringa dekepitatsiya qilingandan keyin, qorin bo'shlig'i ochilib, o'pka to'qimasi ajratib olinib, a'zo ikkiga ajratilib 10% li formalin neytrallangan eritmasida fiksatsiya qilindi, 72 soat mobaynida qotirildi, keyin oqar suvda 2 soat yuvilib, suvsizlantirish uchun konsentratsiyasi oshib borgan spirtlardan o'tkazildi va parafin quyilib g'ishchalar tayyorlandi. Ulardan 5-8 mkm qalinlikdagi kesmalar tayyorlanib, umumiy gistologik tuzilishi gematoksilin-eozin bo'yog'ida bo'yalib o'rganildi. Kesmalar "Leyka" firmasining yorug'lik mikroskopi ostida o'rganilib, kerakli sohalaridan rasmlar tushirildi. Mikropreparatlar 4x10, 10x10, 40x10, 100x10, o'lchamdagi mikroskop ostida suratga olindi.

Hayvonlarning tajriba mazmuniga qarab taqsimlanishi

Guruhlar (n-nazorat, t-tajriba)	Tajriba mazmuni	Hayvonlarning yoshlari	Hayvonlarning umumiy soni (*o'lgan kalamushlar soni)
		6oylik	
I n	Nazorat	15	15
II t	sirka kislotasining past (6%) konsentratsiyasi ta'sirida eksperimental hazm trakti kuyishi keltirib chiqarilgan oq zotsiz kalamushlar	15(3*)	15(3*)
Jami :		30(3*)	30(3*)



Rasm-1. 6 oylik oq zotsiz kalamush o'pkasining makroskopik ko'rinishi.


Natija va tahlillar

Oq zotsiz kalamushlar nafas olish tizimi bir qator o'pka kasalliklarini, shu jumladan surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, o'pka gipertenziyasi va emfizemani va boshqalarni o'rganish uchun eksperimental modeldir. O'rganish natijasida birinchi asosiy guruhga mansub oq zotsiz kalamushlar o'pka a'zosining tashqi makroskopik ko'rinishida aytarli o'zgarishlar vizual tarzda kuzatilmadi, oq zotsiz kalamushlarning chap o'pkasining tuzilishi bitta bo'lakning mavjudligi, interlobar yoriqning yo'qligi bilan tavsiflanadi, chap asosiy bronxda esa ko'plab segmental bronxlar paydo bo'ladi. Oq zotsiz kalamushning chap o'pkasi kranial va kaudal bo'laklardan iborat, kaudal bo'lak kranial

bo‘lakning yarmiga teng bo‘lib, uni o‘ng o‘pkadan ajratib turadi. O‘ng o‘pka esa 4 ta bo‘lakni o‘z ichiga oladi. Bunday holda, interlobar to‘siqning mavjudligi o‘pka ekskursiyasining samaradorligini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi.

Tashqi tomondan, kalamushlarning o‘pkalari giperxromatik ovalsimon cho‘zilgan va tayoqcha shaklidagi yadrolari bo‘lgan tekis mezoteliydan (balandligi $4,13 \pm 0,19$ mkm) va kapillyarlarning zich tarmog‘i orqali o‘tgan subepitelial biriktiruvchi to‘qima qatlamidan iborat seroz membrana bilan qoplangan. Birlashtiruvchi to‘qima qatlami, o‘z navbatida, oval giperxrom yadrolari bo‘lgan ko‘p sonli hujayrali elementlardan, shuningdek, organ yuzasi bo‘ylab yo‘naltirilgan va to‘lqinsimon joylashuvi bilan ajralib turadigan ba‘zi joylarda tolalardan hosil bo‘ladi. O‘pka seroz pardasining umumiy qalinligi $19,2 \pm 1,1$ mkm.

O‘pka parenximasining ko‘p qismini o‘pka alveolalari massasi egallaydi, ular orasida turli kalibrli bronxlar joylashgan. Alveolalar tayoqsimon va yassi shakildagi yadrolari bo‘lgan tekislangan alveolyar epiteliy bilan qoplangan. O‘pka periferiyasiga yaqinroq joylashgan alveolalar va organ markaziga yaqinroq joylashgan alveolalarning bo‘shlig‘i diametrida sezilarli farq yo‘q.



Rasm 2. 6-oylik oq naslsiz kalamushning me‘yordagi o‘pka to‘qimasining morfologik ko‘rinishi. Gematoksilin-eozin bilan bo‘yalgan 4x20 kattalashtirilgan. 1- respirator bronxiola; 2- terminal bronxiola; 3- alveolalar; 4- alveolalararo to‘siq.

O‘rganilayotgan o‘pkaning turli sohalarida alveolalar zichligida ham aniq farq yo‘q. Mikroskopning bir maydon ko‘rinishida (taxminan 20, ob. 40), organning periferiyasiga yaqinroq, alveolalar soni o‘rtacha $6,73 \pm 0,26$, organning markaziga yaqinroq - $7,66 \pm 0,33$ ni tashkil qiladi. Alveolalar bir-biridan kapillyarlar orqali o‘tgan ingichka alveolyar septalar bilan ajralib turadi.

Alveolalar aro to‘siqlar zich joylashgan hujayra elementlaridan (yumaloq va oval yadrolarga ega, ularda yadro va xromatin bo‘laklari aniq ko‘rinadi), shuningdek, ingichka biriktiruvchi to‘qima tolalaridan iborat. O‘pka periferiyasiga yaqinroq bo‘lsa, Alveolalar aro to‘siqlarning qalinligi $9,75 \pm 0,49$ mkm, organning markaziga yaqinroq - $8,73 \pm 0,43$ mkm.

Bronxlar (ularning hajmidan qat’iy nazar) qon tomirlari bilan birga keladi. Arteriyalar mediasi silliq mushak elementlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Katta tomirlarda (klapanlari mavjudlarida) silliq mushak elementlarining nisbati shunga o‘xshash o‘lchamdagi arteriyalarga qaraganda ancha kam. Kichik venalarda silliq mushak elementlari aniqlanmaydi, shuning uchun ularni

ko'pincha alveolalardan ajratish qiyin. bo'shliq diametri 800-1000 mikron bo'lgan bronxlar devorida qalinligi $54,05 \pm 3,06$ mikron bo'lgan tog'ay to'qimali plastinkalar topiladi. Plastinkalar ichida oval va tartibsiz shakldagi aniq ko'rinadigan chegaralari va diametri $15,44 \pm 0,8$ mkm bo'lgan tog'ay to'qima hujayralari zich joylashgan. Tog'ay to'qima hujayralar yadrolari (diametri $5,38 \pm 0,21$ mkm) oval yoki yumaloq shaklda bo'lib, yaqqol ko'rinadigan yadrochalar va xromatin bo'laklarini o'z ichiga oladi. Plastinkalar atrofdagi silliq mushak to'qimalaridan juda aniq chegaralangan. Bunday holda, plastinkalarga ulashgan silliq mushak hujayralari to'plamlari ularning yuzasi bo'ylab yo'naltirilgan bo'ladi.


Jadval 2.

6 oylik oq zotsiz kalamushlarning yoshga qarab o'pka to'qimasining me'yordagi alveolalar soni

Kalamush yoshi	Pereferiyadagi alveolalar soni	Markazdagi alveolalar soni	Alveolalar aro to'siq qalinligi(mkm)
6-oylik	8.37 ± 0.49	9.02 ± 0.26	11.24 ± 0.31

6 oylik oq naslsiz kalamushlar hazm nayining sirka kislotasi past konsentrasiyasi (6%) ta'sirida kuyishidan keyin o'pka to'qimasidagi morfologik va morfometrik o'zgarishlarni o'rganishda, o'pkada alveolalar, interalveolyar septalar va intraalveolyarlarning hajm ulushi, alveolalar sonining o'zgarishi, ekssudat, qon tomirlari, kollagen va retikulyar tolalar, shuningdek, leykotsitlar infiltratsiyasining intensivligi tekshirilgan. Organning biriktiruvchi to'qima stromasini o'rganish uchun mikropreparatlar Van-Gizon bo'yicha bo'yalgan. Organ alveolarini, ya'ni parenximasidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun esa gematoksilin va eozin bilan bo'yalgan.

Oq naslsiz kalamushlar hazm nayining sirka kislotasining 6% konsentrasiyasi ta'sirida kuyishidan keyin o'pka hajmi ko'paygan, o'rtacha havo bilan to'ldirilgan. Parenxima joylari ko'k rangli qismlari bilan to'q qizil rangga ega. O'pka plevrasi tarang, silliq, yaltiroq, palpatsiyada qo'l izlari botib qoladi. Qizil-sariq ko'pikli suyuqlik kesilgan yuzadan oqib chiqadi. O'pka bo'laklari (shish va o'tkir turg'un giperemiya). Parenxima sohalari oq-kulrang, o'pka plevrasi tarang. Kesish paytida havo pufakchalarining yorilishi (krepitatsiya) tovushi eshitiladi. Kesilgan yuzadan havo pufakchalari ajralib chiqariladi. O'pka bo'laklarida fokal emfizema jarayoni kuzatildi.



Rasm-3. 6-oylik oq naslsiz kalamush hazm nayining sirka kislotasining 6% konsentrasiyasi ta'sirida kuyishidan keyin o'pka to'qimasidagi morfologik o'zgarishlari. Gematoksilin-eozin bilan bo'yalgan 4x20 kattalashtirilgan. 1- terminal bronxlarni hosil qiluvchi devorning qalinlashuvi (gipertrofiya); 2- emfizematoz alveolyar qopchalar; 3- qon tomirlari to'laqonligi; 4- infiltrativ jariyonning kuchayishi kuzatilishi.

6% li sirka kislotasining oq naslsiz kalamush hazm nayiga ta'siridan so'ng, o'pka to'qimasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi:

- Bronxlar kalibriga qarab, bronxial devorning qalinlashishi;
- Alveolalar orasidagi to'sitqlarning yo'qolib, emfizematoz alveolyar qoplarning hosil bo'lishi;
- Yallig'lanish jarayonining ta'siri natijasida qon tomirlarning to'laqonligi kuzatilgan.

4,5 va 6 rasmlarni taqqoslaganimizda, bir xil foizdagi (6%) sirka kislotasining oq naslsiz kalamushlar hazm nayiga ta'sir kilganda, o'pka to'qimasida har xil darajadagi o'zgarishlar kuzatiladi.

Oq naslsiz kalamush hazm nayining sirka kislotasining 6% konsentratsiyasi ta'sirida kuyishidan keyin o'pka to'qimasidagi alveolalar soni yoshga doir o'zgarishlari

Jadval 3.

Kalamush yoshi	Pereferiyadagi alveolalar soni	Markazdagi alveolalar soni	Alveolalar aro to'siq qalinligi(mkm)
6-oylik	6.44±0.41	7.07±0.23	13.44±0.11

Xulosa

6 oylik oq naslsiz kalamushlar hazm nayining sirka kislotasi past konsentratsiyasi (6%) ta'sirida kuyishidan keyin o'pka to'qimasidagi morfologik va morfometrik o'zgarishlarni o'rganimizda, o'pka yuzaga kelgan infiltrativ jarayoni foiziy kuchayib borishini aniqladik: 6-oylik kalamushlar bronx atrofidagi infiltratsiya 326600,0 mkm².

Ikkinchidan, oq naslsiz kalamush hazm nayining sirka kislotasining 6% konsentratsiyasi ta'sirida kuyishidan keyin o'pka to'qimasidagi alveolalar soni qanday qilib o'zgarganini tekshirganimizda, o'pkaning markazda joylashgan alveolalar 6 oylik kalamushlarda esa 8.37 dan 6.44 ga kamaygan. O'pkaning periferiyasida joylashgan alveolalar esa 6 oylik kalamushlarda esa 9.02 dan 7.07 ga kamayganini aniqladik. Alveolalar orasidagi to'siqning qalinlashuvi ham yoshga doir tekshirilib, 6 oylik kalamushlarda uning qalinligi ancha oshganini aniqladik.

ADABIYOTLAR RO'YXAT:

1. Алексеенко С. и др. Химические ожоги пищевода у детей. Litres, 2022.
2. Алтиев Ф. Ф. Морфологические изменения толстого кишечника при ожогах уксусной кислотой органов желудочно-кишечного тракта в условиях эксперимента //Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali. 2024;3(1):130-134.
3. Берченко М.А. Наиболее распространенные причины смерти в первые часы при отравлении уксусной кислотой //Вестник КазНМУ. 2015;4.
4. Блинова С.А., Орипов Ф.С., Дехканов Т.Д. Морфофункциональные особенности нейроэпителиальных телец в респираторном отделе легких //Вестник науки и образования. 2020;10(88)/3:82-85.
5. Ермаченкова Евгения Игоревна, Левицкая Н.Н., Гуськова Е.Р., Пинчук Т.П. Эндоскопическая диагностика и лечение химических ожогов желудочно-кишечного тракта и дыхательных путей //НМП. 2012;3:64-68.
6. Зотов Павел Борисович, Любов Евгений Борисович, Герасименко Вадим Игоревич, Зотова Екатерина Павловна, Петров Иван Михайлович, Скрыбин Евгений Геннадьевич, Приленский Александр Борисович Уксусная кислота среди средств суицидальных действий //Суицидология. 2020;1(38).
7. Казачкосмертыва А.А. Химико-токсикологический анализ отравления уксусной кислотой //Актуальные вопросы фармацевтических и естественных наук. 2020;116-118.
8. Константинова Д. А., Субботина Т. И. Морфологические изменения в различных тканях человека при отравлении уксусной кислотой //Вестник новых медицинских технологий. Электронное издание. 2012;1.

Qabul qilingan sana 20.07.2024